

**Birlamchi uy-joy bozorida uy-joy (kvartira) sotib olish maqsadida ipoteka krediti berish
to`g`risida**
KREDIT SHARTNOMASI

20 __ yil "___" _____ № _____ shahri

«Trastbank» xususiy aksiyadorlik banki (keyingi o‘rinlarda – «Bank» deb yuritiladi) nomidan 20__ yil "___" _____ dagi _____ - sonli ishonchnoma asosida harakat qiluvchi «_____» bank xizmatlari ofisi boshqaruvchisi _____ bir tomondan, O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi _____ pasport yoki ID-karta raqami/seriyasi _____, JSHSHIR _____ (keyingi o‘rinlarda – «Qarz oluvchi» deb yuritiladi) ikkinchi tomondan, O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi _____ pasport yoki ID-karta raqami/seriyasi _____, JSHSHIR _____ (keyingi o‘rinlarda – «Birgalikda qarz oluvchi» deb yuritiladi) uchinchi tomondan, mazkur Kredit shartnomasini (keyingi o‘rinlarda – «Shartnomma» deb yuritiladi) quyidagilar haqida tuzdilar:

1. ASOSIY TUSHUNCHALAR

1.1 Mazkur Shartnoma matni bo‘yicha keyingi o‘rinlarda uchraydigan barcha atamalar, agar kontekstdan boshqacha ma’no anglashilmasa ushbu bo‘limda bayon qilingan ma’nolarni anglatadi:

ariza beruvchi — birlamchi uy-joy bozorida kvartirani sotib olish maqsadida ipoteka krediti olish uchun bankka ariza taqdim etgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi;

qarz oluvchi — birlamchi uy-joy bozoridagi kvartirani sotib olish uchun ipoteka krediti olgan va kredit shartnomasida belgilangan shartlarda qaytarish majburiyatini ega O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi;

birgalikda qarz oluvchi — qarz oluvchining ipoteka krediti asosiy summasi va kredit bo‘yicha hisoblangan foizlarning har oydagisi to‘lovlarida qatnashadigan, shuningdek, ipoteka krediti bo‘yicha solidar javob beradigan jismoniy shaxslar;

birlamchi uy-joy bozori (yangi qurilgan uy-joy) — qurilishi tugallangan uy-joyni foydalanishga qabul qilib olish to`g`risida komissiya dalolatnomasi asosida mulk huquqi yuzaga kelgan hamda qabul qilib olinganiga uch yildan ko`p bo`lmagan, shuningdek, qarzdorlik evaziga bank balansiga qabul qilingan yangi qurilgan 4 va undan yuqori qavatli uy-joylar yoki undagi kvartiralar;

boshlang`ich badal — sotib olinadigan uy-joy qiymatining ipoteka krediti olish uchun qarz oluvchi tomonidan o‘z mablag‘lari va qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan belgilangan me’yorlarda shakllantiriladigan qismi;

sotuvchi – ko‘p kvartirali uylarni o‘z mablag‘lari, bank krediti va qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa mablag‘lar hisobidan qurishni amalga oshiruvchi hamda birlamchi uy-joy bozorida qurilgan kvartiralarni sotish uchun taklif etuvchi tadbirkorlik subyekti;

kredit ta`minoti – kredit hisobiga sotib olinadigan uy-joy;

kreditning to`liq qiymati — kredit bilan bog‘liq to‘lovlarining haqqoniy, yillik va samarali hisoblashdagi foiz stavkasi hamda to‘liq qiymati.

qarz yuki ko'rsatkichi - qarz oluvchining barcha kreditlari va mikroqarzlari bo'yicha o'rtacha oylik to'lovlari miqdorining qarz oluvchi va birgalikda qarz oluvchilarning tasdiqlangan o'rtacha oylik daromadi miqdoriga bo'lgan nisbati.

2. SHARTNOMA PREDMETI

2.1 Bank mazkur Shartnoma shartlariga muvofiq Qarz oluvchiga _____ (toli`q manzili)da joylashgan umumiy maydoni _____ kv. metr bo'lgan _____ xonadan iborat birlamchi uy-joy bozoridagi uy-joy (kvartrira)ni (kadastr raqami: _____) _____ yildagi _____ -sonli oldi-sotdi shartnomasiga asosan sotib olish uchun _____ (so`z bilan) so'm miqdorida ipoteka krediti ajratish majburiyatini oladi, Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) esa o'z navbatida olingan pul mablag'larini belgilangan muddatlarda qaytarish va pul mablag'laridan foydalanganligi uchun foizlar to'lash majburiyatini oladi.

2.2 Kreditdan foydalanish jarayonida Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) kreditlarni qaytarilishi, to'lovligi, muddatliligi va ta'minlanganligi kabi kredit berish tamoyillariga rioya qilishni o'z zimmasiga oladi.

3. QARZ OLUVCHI / BIRGALIKDA QARZ OLUVCHINING TASDIQLARI VA KAFOLATLARI

3.1 Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) ushbu bilan quyidagilarni tasdiqlaydi:

- a) Bankga taqdim etilgan/etiladigan hamma hujjatlar va ma'lumotlar haqiqiyligi, qonuniyligi va ishonchliligin;
- b) Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi)ga nisbatan ma'muriy yoki jinoyat ishi qo'zg'atilmaganligini;
- c) mazkur Shartnoma aldash, zo'rlik, qo'rqtish yoki og'ir holatlar yuz berishi ta'sirida tuzilmaganligini;
- d) mazkur Shartnomani tuzish va uning shartlarini bajarishga layoqatliligin;
- e) mazkur Shartnomaning matni bilan tanishib chiqqanliklari, barcha shartlari, shu jumladan huquq va majburiyatlar, kreditning qaytarish tartibi, nazarda tutilgan to'lovlarining miqdori, mazkur to'lovlarni amalga oshirish tartibi ikki tomonning roziligi asosida kelishilganini va ularning manfaatlari va huquqlarini cheklamaganligini.

3.2 Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) ushbu bilan mazkur kredit shartnomasi hamda garov (ipoteka) shartnomasi bo'yicha (shu jumladan, mazkur shartnomalar shartlaridan kelib chiqadigan) Bankga tegishli huquq (talab qilish huquqi) "O'zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi" AJ oldida Bankning majburiyatları ta'minoti sifatida taqdim qilinishiga rozilik bildiradi.

3.3 Bankning huquqlari bitim asosida "O'zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi" AJga o'tishi uchun Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi)ning roziligi talab qilinmaydi.

4. KREDIT AJRATISH TARTIBI

4.1 Mazkur Shartnoma bo'yicha kreditdan foydalanish muddati _____ oyni tashkil qiladi.

4.2 Imtiyozli davr _____ oyni tashkil etadi va mazkur Shartnoma bo'yicha kredit berilgan kundan boshlab hisoblanadi.

4.3 Bankning ipoteka krediti ajratish bo`yicha majburiyati Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) tomonidan quyidagi harakatlar bajarilgandan so`ng vujudga keladi:

a) Bankda depozit hisobraqam ochish va boshlang`ich badal summasini o`z mablag`lari hisobidan tegishli hisobraqamda to`liq shakllantirish. Boshlang`ich badal - sotib olingan turar-joyning umumiyligi qiymatining ____%, ya`ni _____ (so`zlar bilan _____ so`m _____ tiyin) so`mni tashkil etadi;

c) turar-joy oldi-sotdi shartnomasining notarial tasdiqlangan va kadastr idoralari tomonidan davlat ro`yxatidan o`tkazilgan asl nusxasini taqdim qilish;

d) Qarz oluvchining turar-joyga egalik huquqini tasdiqlovchi kadastr hujjatlarining asl nusxasini taqdim qilish;

e) kredit bo`yicha ta`minotni O`zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi belgilangan tartibda rasmiylashtirilib, notarial tasdiqlangan va kadastr idoralari tomonidan davlat ro`yxatidan o`tkazilgan kredit mablag`lari hisobiga sotib olinadigan uy-joy (kvartira)ning garov (ipoteka) shartnomasining asl nusxasini taqdim qilish. Bank tomonidan kredit bo`yicha qo`shimcha ta`minotni taqdim qilish talab qilinganida qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda rasmiylashtirilgan ta`minot shartnomasining asl nusxasini taqdim qilish.

4.4 Bank Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) dan to`lov qobiliyati, kreditni qaytarish kafolatlarining ishonchligini tasdiqlovchi va ipoteka kreditini ajratish uchun zarur bo`lgan boshqa hujjatlarni taqdim etishni talab qilishi mumkin.

4.5 Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) tomonidan mazkur Shartnomaning 4.3 va 4.4-bandlarida nazarda tutilgan majburiyatlar lozim darajada to`liq bajarilganidan so`ng Qarz oluvchining topshirig`iga asosan Bank tomonidan kredit mablag`lari _____ (_____) ish kuni ichida Sotuvchining hisobvarag`iga naqd pulsiz shaklda pul o`tkazish yo`li bilan o`tkazib beriladi.

4.6 Bank Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) tomonidan taqdim qilingan hujjatlarda kamchiliklar aniqlangan holatlarda mazkur kamchiliklar to`liq bartaraf etilmaganiga qadar kreditlashni to`xtatib turish huquqiga ega.

4.7 Kreditni ajratilishining haqiqiy sanasi Qarz oluvchining topshirig`iga asosan Bank tomonidan Sotuvchining hisobvarag`iga pul mablag`larini o`tkazib berish (ko`chirish) sanasi hisoblanadi.

5. KREDIT MABLAG`LARIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN FOIZLAR

5.1 Kredit mablag`laridan foydalanganlik uchun foizlar yillik ____% miqdorida belgilanadi.

5.2. Mazkur Shartnoma bo`yicha foizlar kredit valyutasida to`lanadi.

5.3 Kreditdan foydalanganlik uchun foizlar kredit mablag`lari Sotuvchining hisobvarag`iga o`tkazib berilgan kundan boshlab hisoblanadi va Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) tomonidan ushbu Shartnoma shartlari va ushbu Shartnomaning ajralmas qismi (— - sonli ilova) hisoblangan Kreditni qaytarish (to`lash) jadvaliga muvofiq to`lab boriladi.

5.4 Foizlar har kuni yillik bazaviy davr — 365 kundan kelib chiqqan holda asosiy qarzning qoldig`i bo`yicha hisoblanadi.

5.5 Qarz oluvchining tashabbusi bilan mazkur Shartnoma shartlari qayta ko`rib chiqilgan taqdirda, Bank tomonidan belgilangan tariflarga muvofiq komissiya undiriladi. Shartnoma shartlari komissiya to`langanidan keyin qayta ko`rib chiqiladi.

6. KREDITNI TO`LASH MUDDATI VA TARTIBI

6.1 Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) kredit bo`yicha hisoblangan foizlar va asosiy qarz summasini Shartnomaning __-ilovasida keltirilgan Kreditni to`lash (qaytarish) jadvaliga muvofiq belgilangan miqdor va muddatlarda amalga oshiradi.

6.2 Kredit bo`yicha asosiy qarz va hisoblangan foizlar bo`yicha barcha to`lovlardan Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) kredit valyutasida amalga oshiriladi.

6.3 Kredit to`lovlari bo`yicha differensial / annuitet to`lovlardan tartibi tafsiq etiladi.

(to`lov tartibini belgilang)

6.4 Kredit bo`yicha asosiy qarz va hisoblangan foizlar bo`yicha barcha to`lovlarni amalga oshirish muddati ish kuni bo`limgan kunga to`g`ri kelsa, u keyingi ish kuniga o`tkaziladi. Bunda kredit bo`yicha foizlar miqdori mos ravishda qayta hisoblab chiqiladi.

6.5 Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) tomonidan ushbu Shartnoma bo`yicha Bankga amalga oshirilgan har qanday to`lovlardan, boshqa majburiy qoidalar bo`limgan taqdirda, Bank tomonidan Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi)ning majburiyatlarini quyidagi ketma-ketlikda bajarishga yuboriladi:

- 1) neustoyka (jarima, penya);
- 2) kechiktirilgan asosiy qarz uchun hisoblangan foizlar;
- 3) kreditdan foydalanganlik uchun hisoblangan foizlar bo`yicha muddati o`tgan qarzdorlik;
- 4) asosiy qarz bo`yicha muddati o`tgan qarzdorlik;
- 5) joriy foizlar bo`yicha to`lovlardan;
- 6) asosiy qarz bo`yicha joriy to`lovlardan.

6.6 Agar Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) tomonidan ushbu Shartnoma bo`yicha amalga oshirilgan to`lov summasi Shartnoma bo`yicha majburiyatlarini bajarish uchun etarli bo`lmasa, Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi)ning qarzi quyidagi navbatda qoplanadi:

- 1) asosiy qarz bo`yicha muddati o`tgan qarzdorlik va muddati o`tgan foiz to`lovlari mutanosib ravishda;
- 2) joriy davr uchun hisoblangan foizlar va joriy davr uchun asosiy qarz bo`yicha qarzdorlik;
- 3) neustoyka (jarima, penya);
- 4) **Bankning qarzdorlikni uzish bilan bog`liq bo`lgan boshqa xarajatlari.**

6.7 Kredit bo`yicha joriy to`lov uchun Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) dan Kreditni to`lash (qaytarish) jadvalida nazarda tutilgan miqdordan ko`proq miqdorda mablag` kelib tushgan taqdirda, Bank mazkur mablag`larning ortiqcha qismini Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi)ning asosiy qarzini yopish uchun yo`naltiradi.

6.8 Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) Bankni oldindan yozma ravishda ogohlantirgan holda kredit qarzdorligini to`liq yoki qisman muddatidan oldin qoplash (to`lash) huquqiga ega.

6.9 Kreditni qisman yoki to`liq qoplash (yopish)ga jarimalar undirilmasdan yo`l qo`yiladi.

6.10 Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) tomonidan kredit bo`yicha muddatli qarzni muddatidan oldin qisman yopishga yuborilgan to`lovlardan Kreditni to`lash (qaytarish) jadvalida belgilangan muddatlarga yaqin bo`lgan to`lovlardan hisobga olinadi.

6.11 Kreditni muddatidan oldin to`liq so`ndirish (qoplash) kredit bo`yicha hisoblangan foizlarni va kreditni to`liq so`ndirish (qoplash) sanasida hisoblangan boshqa to`lovlarni to`liq so`ndirish (qoplash) bilan bir vaqtida amalga oshiriladi.

6.12 Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) Bankning birinchi talabiga binoan mazkur Shartnoma hamda unga tegishli hujjatlar ijrosisini amalga oshirish bilan bog`liq barcha xarajatlarni qoplaydi.

6.13 Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) tomonidan oylik to`lovlarni, shu jumladan hisoblangan foizlar summasini, asosiy qarz va mazkur shartnoma bo`yicha boshqa to`lovlarni to`lash Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) yoki uning vakolatli vakili tomonidan istalgan Bank ofislarida, shuningdek, mobil ilovalar, to`lov terminallari (infokiosklar), to`lov tizimlari orqali to`lovnini amalga oshirish, Bank yoki boshqa banklarning kassasi orqali bank o`tkazmasi yoki Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi)ning Bankda ochilgan barcha hisobvaraqlaridan tegishli summani echib olish yo`li bilan to`lanishi mumkin.

6.14 Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) Bankga Shartnoma bo`yicha o`z majburiyatlarini bajarmagan va/yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi)ning O`zbekiston Respublikasi tijorat banklarida ochilgan bank hisobvaraqlari va (yoki) bank omonatlari (shu jumladan, bank kartalari)dan Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi)ning mazkur Shartnoma bo`yicha majburiyatlarini bajarish uchun zarur bo`lgan pul mablag`larini qaytarib olinmaydigan, so`zsiz va akseptsiz echib olish/undirish/hisobdan chiqarish huquqini beradi.

7. KREDITNING QAYTARILISHINI TA`MINLASH

7.1 7.1.1 Mazkur Shartnoma o`z majburiyatlarining bajarilishini ta`minlash maqsadida Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) mazkur Shartnoma imzolangan kundan boshlab 30 (o`ttiz) kun muddat ichida kredit umumiyligi miqdorining kamida 125% miqdorida (bankning ichki me'yoriy hujjatlari va moliyalashtirish shartlariga muvofiq belgilanadi) ta`minot taqdim qiladi va rasmiylashtiradi, shu jumladan:

1. kredit mablag`lari hisobidan birlamchi uy-joy bozorida _____ yildagi _____-sonli oldi-sotdi shartnomasiga asosan sotib olingan _____ (toli`q manzili)da joylashgan umumiyligi maydoni _____ kv. metr bo`lgan _____ xonadan iborat uy-joy (kvartera) (kadastr raqami: _____).

2._____

7.2 Qarz oluvchi Bank bilan amaldagi qonunchilikka muvofiq Bankni qanoatlantiradigan shakl va mazmunda notarial tasdiqlangan garov (ipoteka) shartnomasini tuzadi va kadastr idoralari tomonidan davlat ro`yxatidan o`tkazadi. Bank tomonidan kredit ajratish davrida kredit bo`yicha qo`shimcha ta`minotni taqdim qilinganida qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda ta`minot shartnomasini rasmiylashtiradi.

7.3 Qarz oluvchi kredit bo`yicha ta`minot sifatida taqdim qilingan ko`chmas mulkni yuqotilishi (nobud bo`lishi), kamomadi yoki shikastlanishi xavfidan butun kredit muddati davomida sug`urta qilinish majburiyatini oladi. Sug`urta hodisasi yuz berganda Naf oluvchi Bank hisoblanadi.

7.4 Kreditning qaytarilishini ta`minlash uchun barcha hujjatlarni rasmiylashtirish bo`yicha har qanday xarajatlarni Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) o`z zimmasiga oladi.

7.5 Garovning aniq shartlari O`zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq rasmiylashtirilgan garov shartnomasida belgilanadi.

7.6 Kredit bo`yicha ta`minot sifatida taqdim qilingan ko`chmas mulkning qadr, qiymati va likvidliliqi yoqolganda; bozor narxi sezilarli pasayganda; Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) majburiyatlarini bajarmasligi xavfini orttiruvchi boshqa omillar yuzaga kelganda Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) Bankni qanoatlantiradigan qo`shimcha ta`minotni taqdim etish majburiyatini oladi.

7.7 Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi)ning majburiyatlarini bajarish uchun bir nechta ta`minotlar mayjud bo`lishi bir-biriga zid hisoblanmaydi, majburiyatlarni bajarishning har bir usuli mustaqil va bir-biriga bog`liq bo`lmaydi. Majburiyatlarning bajarilishini ta`minlash usullari bo`yicha undirish zarurati tug'ilganda, tanlash huquqi Bankda qoladi, Bank o`z xohishiga ko`ra majburiyatlarning bajarilishini ta`minlashning har qanday usullari yoki barcha usullari bo`yicha talablar qo`yishi mumkin.

7.8 Agar mazkur Shartnomada amal qilish muddati davomida garovga qo`yilgan ko`chmas mulkning garov qiymati garov mulki yuqotilishi, nobud bo`lishi, shikastlanishi, yoki talon-taroj qilinishi natijasida, shuningdek Bankga bog`liq bo`lmagan boshqa sabablarga ko`ra Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi)ning majburiyatlaridan kam qiymatga ega bo`lsa, Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) Bankning tegishli talabnomasini olgan kundan boshlab 10 (o`n) ish kuni ichida garov bilan ta`minlanmagan kredit summasini muddatidan oldin qoplashga yoki garov mulkini almashtirish va boshqa ekvivalent ta`minotni taqdim etishga majburdir.

7.9 Agar Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) mazkur Shartnomada belgilangan shartlar va muddatlarda asosiy qarz, hisoblangan foizlar va/yoki komissiya to`lovlarini amalga oshira olmaydigan vaziyat yuzaga kelsa, amaldagi qonunchilik, mazkur Shartnomada va garov shartnomalariga muvofiq Bank garov va/yoki uning qismlariga undirish/ undiruv qaratish bo`yicha shartsiz va so`zsiz huquqqa ega bo`ladi.

8. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

8.1. Bank quyidagi huquqlarga ega:

a) Mazkur Shartnomada imzolangan kundan boshlab 30 (o`ttiz) kun muddat ichida Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) tomonidan mazkur Shartnomaning 4.3 va 4.4-bandlarida nazarda tutilgan majburiyatlar lozim darajada to`liq bajarilmaganida, Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) tomonidan boshlang`ich badal to`liq shakllantirilmaganligida, kredit berish uchun Shartnomada ko`rsatilgan hujjalarni taqdim qilinmaganida, Shartnomada imzolangandan keyin kreditni qaytarishga ta`sir qiladigan ishonchhsiz va sohta ma`lumotlar taqdim qilingani aniqlanganda kredit berishni rad etish va shartnomani bekor qilish haqida ikkinchi tarafni yozma ravishda xabardor etish orqali Shartnomani bir tomonlama bekor qilish;

b) Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi)dan shartnomada bo`yicha majburiyatlarni o`z vaqtida va lozim darajada bajarishni talab qilish;

c) joyiga chiqqan holda garov mulkining holati va saqlanishi yuzasidan tekshiruv (monitoring)ni amalga oshirish. Bu kabi tekshirishlarni o`tkazish davriyligi Bank tomonidan belgilanadi;

d) Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) kredit shartnomasi bo`yicha qarzning asosiy summasini qaytarish va (yoki) foizlarni to`lash muddatlarini buzganda kredit shartnomasida nazarda tutilgan usulda nizoni sudgacha hal qilish yuzasidan talabnomasi yuborish;

e) Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) Shartnomada bo`yicha o`z majburiyatlarni bajarmagan va/yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi)ning O`zbekiston Respublikasi tijorat banklarida ochilgan bank hisobvaraqlari va (yoki) bank omonatlari (shu jumladan, bank kartalari)dan Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi)ning mazkur Shartnomada bo`yicha majburiyatlarni bajarish uchun zarur bo`lgan pul mablag`larini so`zsiz va akseptsiz echib olish/undirish/hisobdan chiqarish;

f) kredit bo`yicha ta`minot sifatida taqdim qilingan ko`chmas mulkning qadr, qiymati va likvidliliği yoqolganda; bozor narxi sezilarli pasayganda, Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi)

majburiyatlarini bajarmasligi xavfini orttiruvchi boshqa omillar yuzaga kelganda Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) Bankni qanoatlantiradigan qo'shimcha ta'minotni taqdim etishni talab qilish;

g) agar mazkur Shartnoma amal qilish qilish muddatida garov sifatida taqdim etilgan mol-mulkning garov qiymati garov mulki yuqotilishi, nobud bo'lishi, shikastlanishi yoki talon-taroj qilinishi natijasida, shuningdek Bankga bog'liq bo'limgan boshqa sabablarga ko'ra Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi)ning majburiyatlari miqdoridan kamaysa, Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi)dan garovni almashtirish, boshqa ekvivalent garov bilan ta'minlash yoki kreditning ta'minlanmagan miqdorini muddatidan oldin to'lashni talab qilish;

h) mazkur Shartnomada va amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda, Qarz oluvchidan kreditning hammasini yoki uning bir qismini muddatidan oldin qaytarishni talab qilish / sud tartibida muddatidan oldin undirish;

i) garov (ipoteka) shartnomasida belgilangan tartibda va amaldagi qonun hujjatlariga asosan qarzdorlikni undirishni kredit bo'yicha ta'minotga qaratish;

j) ipoteka obyektini Bankning qoniqarli shartlari asosida kredit berishning butun davri uchun o'z mablag`lari hisobidan yuqotilishi (nobud bo'lishi), kamomadi yoki shikastlanish xavfidan sug`urta qilishni talab qilish;

k) garov mulki bo'yicha garov reestriga yozuvlar kiritish va garov mulkiga nisbatan taqiq qo'yish;

l) **Bank (ipotekaga oluvchi) ning ipoteka bilan ta'minlangan majburiyat bo'yicha va ipoteka to'g'risidagi shartnoma bo'yicha huquqlari tasdiqllovchi garov xatini qog'oz yoki yoki elektron shaklda rasmiylashtirish (tuzish)ni Qarz oluvchidan talab qilish;**

m) mazkur Shartnoma va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa huquqlarni amalga oshirish.

8.2 Quyidagi har qanday davrda sodir bo'ladigan mazkur hodisalarining har biri kreditni muddatidan oldin **to'liq** undirish holati hisoblanadi:

a) Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) mazkur Shartnoma bo'yicha kredit qarzdorligini to'lash bo'yicha o'z majburiyatlarini Kreditni qaytarish (to'lash) jadvalida belgilangan muddatlarda lozim darajada bajarmaganda (asosiy qarz, hisoblangan foizlar va boshqa to'lovlar) va mazkur qarzdorlik yuzaga kelgan kundan boshlab 30 (o'ttiz) kalendar kun davom etganda;

b) Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini (qarzdorlikni to'lash majburiyatidan tashqari) lozim darajada bajarilishi lozimligi to'g'risida bildirishnomasi (talabnama) yuborilgan kundan boshlab 30 (o'ttiz) kalendar kun ichida lozim darajada bajarmasa.

8.3. Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) quyidagi huquqlarga ega:

- a) mazkur Shartnomada nazarda tutilgan shartlar va miqdorlarda kredit olish;
- b) o'z huquq va majburiyatlari to'g'risida, shu jumladan ipoteka krediti berish bilan bog'liq barcha xarajatlar haqida ishonchli hamda to'liq axborot olish;
- c) kredit mablag`lari Sotuvchining hisobvarag`iga o'tkazib berilguniga qadar kredit mablag'larini olishdan bepul voz kechish. Bunda, voz kechish kunigacha qilingan xarajatlar Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) zimmasida qoladi;
- d) mazkur Shartnoma bo'yicha olingan kredit summasini qisman yoki to'liq muddatidan oldin qaytarish, foizlar va boshqa nazarda tutilgan to'lovlarini to'lash.

8.4. Bank quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:

a) Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi)ning huquq va majburiyatlari to‘g‘risida, shu jumladan kredit berish bilan bog‘liq barcha xarajatlar haqida Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi)chiga ishonchli hamda to‘liq axborotni taqdim qilish;

b) Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) tomonidan mazkur Shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlar lozim darajada to‘liq bajarilganidan so‘ng kredit mablag`larini ajratish;

c) muddati o‘tkazib yuborilgan qarzdorlik yuzaga kelganda, Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) bilan kelishilgan usulda, shu jumladan elektron aloqa vositalaridan yoki boshqa usullardan foydalanib Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi)ga muddati o‘tkazib yuborilgan qarzdorlik yuzaga kelganligi haqida ogohlantirish;

d) mazkur Shartnomada ko‘rsatilgan holatlarda kredit berishni rad etish to‘g‘risida qaror qabul qilinganligi, uning sabablari hamda shartnomani bir tomonlama bekor qilish haqida Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi)ni yozma ravishda xabardor qilish;

e) Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) shartnoma bo‘yicha barcha to‘lov majburiyatini to‘liq bajargan sanadan boshlab uch ish kunidan kechiktirmagan holda mazkur kredit bo‘yicha garov mulkini ta’qiqdan chiqarish hamda garov mulkiga nisbatan bankning huquqlari to‘g‘risidagi yozuvni garov reestridan o‘chirish.

8.5 Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) ning majburiyatlari:

a) Mazkur shartnoma imzolangan paytdan boshlab 30 (o‘ttiz) kun muddat ichida quyidagi hujjatlarni rasmiylashtirish va bankga taqdim qilish:

1) turar-joy oldi-sotdi shartnomasining notarial tasdiqlangan va kadastr idoralari tomonidan davlat ro`yxatidan o‘tkazilgan asl nusxasi;

2) Qarz oluvchining turar-joyga egalik huquqini tasdiqlovchi kadastr hujjatlarining asl nusxasi;

3) kredit bo‘yicha ta`minotni O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi belgilangan tartibda rasmiylashtirilib, notarial tasdiqlangan va kadastr idoralari tomonidan davlat ro`yxatidan o‘tkazilgan kredit mablag`lari hisobiga sotib olinadigan uy-joy (kvartira)ning garov (ipoteka) shartnomasining asl nusxasi.

Kredit ajratish davrida Bank tomonidan kredit bo‘yicha qo`shimcha ta`minotni taqdim qilish talab qilinganida qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda rasmiylashtirilgan ta`minot shartnomasining asl nusxasini taqdim qilish.

b) Bankda depozit hisobraqam ochish va boshlang`ich badal summasini o‘z mablag`lari hisobidan tegishli hisobraqamda to`liq shakllantirish.

c) mazkur Shartnoma shartlari va Kreditni to‘lash (qaytarish) jadvaliga muvofiq kreditni belgilangan muddatlarda to‘lash, Bank bilan o‘z vaqtida hisob-kitoblarni amalga oshirish;

d) Bankga Shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarmagan va/yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi)ning O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarida ochilgan bank hisobvaraqlari va (yoki) bank omonatlari (shu jumladan, bank kartalari)dan Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi)ning mazkur Shartnoma bo‘yicha majburiyatlarini bajarish uchun zarur bo‘lgan pul mablag`larini qaytarib olinmaydigan, so‘zsiz va akseptsiz echib olish/undirish/hisobdan chiqarish huquqini berish;

e) kredit bo‘yicha ta`minot sifatida taqdim qilingan ko`chmas mulkning qadr, qiymati va likvidliliqi yoqolganda; bozor narxi sezilarli pasayganda, o‘z majburiyatlarini bajarmasligi xavfini orttiruvchi boshqa omillar yuzaga kelganda Bankni qanoatlantiradigan qo`shimcha ta`minotni taqdim etish;

f) agar mazkur Shartnoma amal qilish qilish muddatida garov sifatida taqdim etilgan

mol-mulkning garov qiymati garov mulki yuqotilishi, nobud bo‘lishi, shikastlanishi yoki talon-taroj qilinishi natijasida, shuningdek Bankga bog‘liq bo`lman boshqa sabablarga ko`ra Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi)ning majburiyatlari miqdoridan kamaysa, garovni almashtirish , boshqa ekvivalent garov bilan ta'minlash yoki kreditning ta'minlanmagan miqdorini muddatidan oldin to`lash;

g) Bank tomonidan talab qilingan to`lov qobiliyati, kreditni qaytarish kafolatlarining ishonchlilagini tasdiqllovchi va ipoteka kreditini ajratish uchun zarur bo`lgan boshqa hujjatlarni taqdim etish;

h) Bankning birinchi talabiga binoan mazkur Shartnoma hamda unga tegishli hujjatlar ijrosisini amalga oshirish bilan bog`liq barcha xarajatlarni qoplash;

i) Bank vakillariga muntazam ravishda o‘tkaziladigan monitoring ishlariga qarshilik ko‘rsatmaslik, ipoteka krediti hisobiga sotib olingan uy-joyni borib ko`rish, holatini, saqlanish sharoitlarini va foydalanilishini tekshirish imkoniyatini ta’minlash;

j) xavfsizlik qoidalariga, sanitariya-epidemiologiya va yong‘in havfsizligi talablari va vakolatli davlat organlari ko‘rsatmalariga rioya qilish;

k) ipoteka obyektini Bankning qoniqarli shartlari asosida kredit berishning butun davri uchun o‘z mablag`lari hisobidan yuqotilishi (nobud bo‘lishi), kamomadi yoki shikastlanish xavfidan sug`urta qilish;

l) yashash joyi, ish joyi, telefon raqami, familiyasi, yoki ismi va mazkur Shartnoma bo‘yicha majburiyatlarning bajarilishiga ta’sir qiladigan boshqa holatlarning o‘zgarganligi haqida 3 (uch) bank kuni ichida Bankga ma’lumotnoma taqdim etish;

m) ipoteka predmetini lozim darajada asrash uchun, shu jumladan uni o‘z vaqtida joriy ta’mirlashni o‘tkazish, undan oqilona foydalanish hamda uni boshqa shaxslarning qonunga xilof tajovuzlari va talablaridan himoya qilish uchun o‘z hisobidan barcha zarur choralarini ko‘rish;

n) ipoteka predmetining yo‘q bo‘lib ketishi, shikastlanishi, buzilishi yoki holati yomonlashuviga olib keluvchi har qanday xavf-xatar, shuningdek Bankning garov ta’mnoti bilan bog‘liq huquqlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan har qanday holat to‘g‘risida Bankni o‘z vaqtida yozma shaklda xabardor qilish;

p) Bankning yozma roziligesiz ipoteka obyekti konstruksiyalariga o‘zgartirish kiritmaslik, ixtisoslashishini o‘zgartirmaslik va rekonstruksiya ishlarini amalga oshirmaslik;

q) kredit hisobiga xarid qilingan kvartira Qarz oluvchi tarafidan Qarz oluvchi va uning oila a’zolari yashashi uchun foydalanishi lozim. Sotib olingan kvartirani ijaraga berish, uchinchi shaxslarni ro‘yxatga qo‘yish faqat Bankning roziligi bilan amalga oshirilishi shart;

r) **Bankning talabiga asosan Bank (ipotekaga oluvchi)ning ipoteka bilan ta’milangan majburiyat bo‘yicha va ipoteka to‘g‘risidagi shartnoma bo‘yicha huquqlari tasdiqllovchi garov xatini qog‘oz yoki yoki elektron shaklda rasmiylashtirish (tuzish);**

s) mazkur Shartnoma hamda O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi nazarda tutilgan boshqa majburiyatlar.

9. MUDDATI O`TIB KETGAN QARZDORLIK KELIB CHIQQANDA BANKNING QARZ OLUVCHI (BIRGALIKDA QARZ OLUVCHI) BILAN O’ZARO MUNOSABATLARINI AMALGA OSHIRISH TARTIBI

9.1 Mazkur Shartnoma bo‘yicha muddati o’tgan qarzdorlik yuzaga kelgan hollarda Bank ushbu Shartnomada Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) bilan kelishilgan har qanday aloqa usullaridan, shu jumladan elektron aloqa vositalaridan yoki qonun hujjatlarida nazarda tutilgan

boshqa usullardan foydalangan holda qarz yuki yanada oshib ketishining oldini olish maqsadida Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi)ni muddati o'tkazib yuborilgan qarzdorlik yuzaga kelganligi haqida xabar berishi shart.

9.2 Bank qonun hujjatlari talablarini hisobga olgan holda Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi)ga Shartnoma bo'yicha muddati o'tkazib yuborilgan qarzdorlikni qaytarish majburiyatlar bajarilmaganligi holati, muddati, summalari, tarkibi va oqibatlari haqida xabardor qilishi shart.

9.3 Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) Shartnoma bo'yicha asosiy qarzni qaytarish va (yoki) foizlarni to'lash muddatlarini buzganda, Bank nizoni sudgacha hal qilish yuzasidan talabnomasi yuboradi.

9.4 Bank tomonidan yuborilgan talabmoma quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak:
Bankning nomi va uni identifikasiyalash uchun etarli ma'lumotlar;

talabnomasi rasmiylashtirilgan sanadagi Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi)ning joriy qarzi miqdori va tarkib;

qarzni to'lash usul(lar)i;

Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi)ning talabnomada ko'rsatilgan muddatgacha o'z majburiyatlarini bajarmasligi oqibatlari;

nizoni sudgacha hal qilish usullari.

9.5 Bank va Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) qonun hujjatlarida nazarda tutilgan nizolarni sudgacha hal qilish usullarini qo'llash, shu jumladan muzokaralar olib borish huquqiga ega.

9.6 Agar Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) nizoni sudgacha hal qilish to'g'risidagi talabnomada ko'rsatilgan muddat ichida talablarni tegishli darajada bajarmagan bo'lsa, Bank qarzni undirish va undirishni garovga qaratish to'g'risida talab bilan sudga murojaat qilishga haqlidir.

10. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

10.1 Mazkur Shartnoma doirasida ajratilgan kredit bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik yuzaga kelgan taqdirda, kredit bo'yicha foiz stavkasi ushbu Shartnomaning 5.1-bandida belgilangan kredit mablag'laridan foydalanganlik uchun foiz stavkasiga nisbatan oshadi.

10.2 Oshirilgan foizlar haqiqiy kechiktirilgan to'lovlar miqdoridan kelib chiqgan holda hisoblanadi.

10.3 Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) ushbu Shartnoma bo'yicha har qanday to'lovni kechiktirgan taqdirda, Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) Bankga kechiktirilgan to'lov yuzaga kelgan kundan boshlab va muddati o'tgan to'lov Bankga to'liq qoplanadigan kungacha quyidagi stavka bo'yicha kechiktirilgan to'lov uchun foizlarni to'laydi:

asosiy qarzning muddati o'tgan qismi bo'yicha – ushbu Shartnomada belgilangan kredit mablag'laridan foydalanganlik uchun foiz stavkasining 1,5 baravari miqdorida.

10.4 Mazkur Shartnoma va kreditni to'lash (qaytarish) jadvalida belgilangan muddatlarda kredit bo'yicha foizlarni to'lamaganligi uchun Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) Bankga qarzdorlik kechiktirilgan kundan boshlab to qarzdorlik qoplangan kunga qadar kechiktirilgan har bir kun uchun to'lanmagan foizlar miqdorining 0,1% miqdorida, biroq kechiktirilgan qarzdorlikning 50 % oshmagan miqdorda penya to'laydi. Penyalarni to'lash Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi)ni qarzdorlikni to'lash majburiyatidan ozod qilmaydi.

10.5 Bank Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi)ga kredit bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik yuzaga kelgan taqdirda foiz stavkasining oshishi holati to'g'risida xabar berish majburiyatini olmaydi.

10.6 Mazkur Shartnomada nazarda tutilmagan hollarda Tomonlar O`zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo`ladilar.

11. BILDIRISHNOMALAR

11.1 Bank tomonidan Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi)ga berilgan har qanday bildirishnomalar/xatlar/talabnomalar Bank tomonidan quyidagi usullardan biri bilan yuborilganda (lekin O`zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga zid bo`Imagan holda) tegishli tarza rasmiylashtirilgan va Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi)ga etkazilgan deb hisoblanadi:

- kuryer yoki pochta xizmati orqali;
- Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) tomonidan arizada ko'rsatilgan elektron pochta orqali;
- faks orqali;
- mobil va boshqa telefon aloqalari orqali (ishonchli raqam va qarz oluvchi tomonidan arizada ko'rsatilgan boshqa raqamlardan foydalangan holda), shu jumladan sms-xabarnoma yuborish orqali.

11.2 Bank Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi)ning aloqa ma`lumotlari va (yoki) rekvizitlari o`zgarganligi sababli Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi)ning Bank tomonidan yozma ravishda xabardor qilmaganligi sababli xabarlarni olmaganligi yoki o`z vaqtida olmaganligi uchun javobgar bo`lmaydi.

12. AMALDAGI QONUNCHILIK VA NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

12.1 Mazkur Shartnomaning qoidalari, shuningdek ulardan kelib chiqadigan tomonlarning huquq va majburiyatlar O`zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq tartibga solinadi va sharhlanadi.

12.2 Agar ushbu Shartnoma bo`yicha nizolar yuzaga kelsa, tomonlar nizolarni muzokaralar yo`li bilan hal qilish uchun barcha harakatlarini amalga oshiradilar. Agar nizoni muzokaralar yo`li bilan hal etish imkon bo`lmasa, nizo O`zbekiston Respublikasining protsessual qonun hujjatlariga muvofiq sudga ko`rib chiqish uchun beriladi.

13. FORS-MAJOR HOLATLARI

13.1. Tomonlar ushbu Shartnoma bo`yicha majburiyatlarning qisman yoki to`liq bajarilmaganligi uchun, agar ushbu bajarilmaganlik Shartnoma tuzilgandan keyin, Tomonlar oldindan ko`ra olishmagan, oqilona choralar bilan bartaraf etishi mumkin bo`Imagan favqulodda tusdagi hodisalar natijasida vujudga kelgan engib bo`lmaydigan kuch holatlarining oqibatlari hisoblansa, javobgarlikdan ozod etiladi.

13.2. Yengib bo`lmaydigan kuch holatlariga asoslanadigan Tomon boshqa Tomonni bunday holatlar boshlanganligi to`g`risida yozma ravishda zudlik bilan xabardor qilishi shart, shu bilan birga istalgan Tomonning talabiga ko`ra holatlarning boshlanishi faktini tasdiqlovchi, tegishli organ tomonidan berilgan hujjat taqdim etilishi kerak.

13.3 Tomonlar favqulodda vaziyatlarda o`z majburiyatlarini bajarish uchun barcha mumkin bo`lgan choralarini, shu jumladan, O`zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi nazarda utilgan choralarini ko`radilar.

14. KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTLAR

14.1 Tomonlar shartnoma tuzish, shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so`ng shartnoma bilan bog`liq korrupsiyaviy harakatlarni sodir qilmaslikka kelishib

oldi.

14.2 Tomonlar ushbu Shartnomadagi korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan korrupsiyaning oldini olish choralarini tan oladi va ularga rioya etilishi bo'yicha hamkorlikni ta'minlaydi.

14.3 Har bir tomon shartnoma tuzilgan paytda bevosita o'zi yoki uning ijroiya organlari, mansabdar shaxslari va xodimlari tomonidan shartnoma bilan bog'liq munosabatlar yuzasidan qonunga xilof ravishda pul, moddiy qiymatliklar berilmagani, shartnoma tuzilishi evaziga norasmiy pul yoki boshqa moddiy qiymatliklar olinishiga yo'l qo'yilmagani, taklif etilmagani, ularni berishga va'da qilinmagani, shuningdek, moddiy yoki har qanday turdag'i imtiyoz, ustunliklar olinmaganini (kelajakda bu turdag'i harakatlarni amalga oshirishi mumkinligi haqida taassurot qoldirilmaganini) kafolatlaydi.

14.4 Tomonlar mansabdar shaxslari va xodimlari tomonidan har qanday vaqt va shaklda korrupsiya harakatlarini bevosita yoki bilvosita (shu jumladan, uchinchi shaxslar orqali) sodir etilishiga yo'l qo'ymaydi.

14.5 Qonunga xilof ravishda olingen daromadning legallashtirilishiga, shuningdek, agar mulk jinoiy faoliyatdan olingen daromad ekanligi tomonlarga ma'lum bo'lsa, uni o'tkazish, mulkka aylantirish yoki almashtirish yo'li bilan uning kelib chiqishiga qonuniy tus berish, bunday pul mablag'i yoki boshqa mol-mulkning asl xususiyati, manbai, turgan joyini, tasarruf etish va ko'chirish usulini, pul mablag'iga yoki boshqa mol-mulkka bo'lgan haqiqiy egalik huquqini yoki uning kimga qarashliligin yashirishga yo'l qo'ymaydi.

14.6 Korrupsiyaga oid huquqbazarlik sodir qilish uchun ta'magirlilik qilish, undash, tazyiq o'tkazish yoki tahdid qilish holati bo'yicha bir tomon ikkinchi tomonni hamda vakolatli davlat organlarini darhol xabardor qiladi.

14.7 Tomonlar tovarlar, xizmatlar va ishlarni realizasiya qilish va o'tkazishda yoki ularning manfaatini ko'zlab boshqa harakatlarni amalga oshiruvchi tomonlarning nazorati ostida bo'lgan va ular nomidan harakat qiladigan shaxslarga nisbatan quyidagi harakatlarni amalga oshiradi:

a) korrupsiyaviy harakatlarga yo'l qo'yib bo'lmasligi va korrupsiyaviy harakatlarga nisbatan murosasiz munosabatda bo'lishi shartligi haqida ko'rsatmalar va tushuntirishlar berish;

b) ulardan korrupsiyaviy harakatlarni amalga oshirish uchun vositachi sifatida foydalanmaslik;

c) ularni faqat tomonning oddiy kundalik faoliyati jarayonidagi ishlab chiqarish zarurati doirasidan kelib chiqib ishga jalgan qilish;

d) ularga qonunchilik doirasida amalga oshirgan xizmatlari uchun belgilangan haq miqdoridan asossiz ravishda ortiqcha to'lovlarini amalga oshirmslik.

14.8 Tomonlar ularning nazorati ostida bo'lgan va ular nomidan harakat qiladigan shaxslar tomonidan korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan majburiyatlar buzilganligi holatlari haqida xabar berilganligi uchun ularga tazyiq o'tkazilmasligini kafolatlaydi.

14.9 Agar bir tomonga boshqa tomonning ushbu Shartnomaning 25-bandida belgilangan majburiyatlarining buzilishiga yo'l qo'yanligi ma'lum bo'lib qolsa, ikkinchi tomonni bu haqda zudlik bilan xabardor qiladi va tegishli choralar ko'riliishi va amalga oshirilgan ishlar yuzasidan xabardor qilishni talab qiladi.

14.10 Bir tomonning talabi bo'yicha ikkinchi tomon tegishli choralar ko'rmagan yoki ko'rib chiqish natijalari haqida xabardor qilmagan taqdirda, birinchi tomon shartnomani bir taraflama to'xtatib turish, bekor qilish hamda zararni to'liq qoplab berishni talab qilishga haqlidir.

15. SANKSIYALAR RO`YXATIGA OID QO'SHIMCHA SHARTLAR

15.1 Qarzdor/mijoz bank hisobvarag‘i bo‘yicha bank operatsiyalarini amalga oshirishda Sanksiyalar ro‘yxati bilan bog‘liq cheklov va taqiqlarga qat’iy rioxas qilinishini ta‘minlaydi va kafolatlaydi. Mazkur Shartnoma imzolanishi bilan Qarzdor/mijoz tomonidan Sanksiyalar ro‘yxati bilan bog‘liq cheklov va taqiqlarga rioxas qilinishi kafolatlangan hisoblanadi.

15.2 Qarzdor/mijoz Sanksiyalar ro‘yxatiga kiritilgan shaxslar bilan, shuningdek ularning manfaatini ko‘zlab ish yuritishi mumkin degan asosli taxmin mavjud bo‘lgan har qanday shaxslar bilan kelishuv, bitim, shartnoma imzolamaydi.

15.3 Qarzdor/mijoz Sanksiyalar ro‘yxatiga kiritilgan shaxslarga yoki ularning manfaati uchun har qanday kelishuv, bitim, shartnoma bo‘yicha to‘lovlarni amalga oshirmaydi.

15.4 Qarzdorning/mijozning Bankka taqdim etgan hujjat va ma‘lumotlari yolg‘on, ishonchhsiz va/yoki noto‘g‘ri bo‘lib chiqsa yoki ushbu paragrafda qayd etilgan shartlar Qarzdor/mijoz tomonidan bajarilmasa, Bank Qarzdorning/mijozning topshirig‘i asosida amalga oshirilgan bank operatsiyalari tufayli chiqib ketgan mablag‘ning qaytarilishi, band solinishi, muzlatilishi, yo‘qotilishi uchun javobgar bo‘lmaydi.

15.5 Qarzdorga/mijozga Sanksiyalar ro‘yxati asosida vakolatli organ, tashkilot yoki banklar tomonidan cheklov va taqiq choralar (pul mablag‘iga band solinishi, to‘loving rad etilishi va boshqalar) qo‘llanganligi uchun Bank javobgar emas va Sanksiyalar ro‘yxati bilan bog‘liq cheklov va taqiqlar tufayli ushbu Shartnoma bo‘yicha Bank o‘z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi natijasida Qarzdorga/mijozga etkazilgan zararni qoplash majburiyatini olmaydi.

15.6 Bank Qarzdorning/mijozning boshqa davlatlar qonun hujjatlari bilan cheklangan yoki taqiqlangan bank operatsiyalarini banklar va/yoki kontragentlar foydasiga amalga oshirmaslik huquqiga ega. Bunday holda, tashqi savdo shartnomalari yuzasidan amalga oshirilmagan bank operatsiyalari bo‘yicha javobgarlikni Bank o‘z zimmasiga olmaydi.

15.7 Qarzdorning/mijozning topshirig‘ini bajarish tufayli Bankka nisbatan mulkiy/nomulkiy sanksiyalar qo‘llanilsa, Qarzdor/mijoz Bankka nisbatan qo‘llanilgan sanksiyalar natijasida kelib chiqqan zararni qoplاب berish majburiyatini o‘z zimmasiga oladi.

16. YAKUNIY QOIDALAR

16.1 Mazkur Shartnoma Tomonlar imzolagan kundan boshlab kuchga kiradi va Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) o‘z zimmasiga olgan barcha majburiyatlarini to‘liq bajargunga qadar amal qiladi.

16.2 Agar qonun hujjatlariga biron bir o‘zgartirish kiritilsa, natijada ushbu Shartnomaning har qanday qoidalari O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq bo‘lmasa, Shartnomaning boshqa qoidalalarining bajarilishiga ta‘sir qilmaydi va eng qisqa vaqt ichida qoidaning mazmuni va maqsadlariga eng yaqin bo‘lgan boshqa qoida bilan almashtiriladi.

16.3 Tomonlarning har biri mazkur Shartnomaning mavzusi va shartlari bilan bog‘liq bo‘lgan ma‘lumotlarning qat’iy maxfiyligini saqlash hamda ushbu ma‘lumotlarning oshkor qilinishidan himoyalash uchun barcha choralarни ko‘rish majburiyatlarini o‘z zimmasiga oladi. Bunday axborotni uchinchi shaxslarga topshirish (e ‘lon qilish yoki oshkor qilish va h. k.) faqat O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida to‘g‘ridan to‘g‘ri nazarda tutilgan hollarda yoki boshqa tomonning yozma roziligi bilan mumkin bo‘ladi.

Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) ushbu bilan mazkur Shartnoma hamda ipoteka shartnomasi mavzusi va shartlari bilan bog‘liq bo‘lgan ma‘lumotlar (hujjatlar)ni “O‘zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi” Ajga zarur hollarda taqdim qilishga rozilik bildiradi.

16.4 Ushbu Shartnoma bo`yicha majburiyatlarni bajarishdan bir tomonlama voz kechishga yo`l qo`yilmaydi.

16.5 Bank o`z xohishiga ko`ra, Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi)ga nisbatan ushbu Shartnomada mavjud bo`lgan har qanday huquqlarni qo`llashi yoki qo`llamasligi mumkin. Bank tomonidan ushbu huquqlarni qo`llamaslik yoki qisman qo`llash ushbu huquqlardan voz kechishni anglatmaydi va ular keyinchalik istalgan vaqtda qo`llanilishi mumkin.

16.6 Ushbu Shartnomaga kiritilgan barcha o`zgartirish va qo`shimchalar yozma ravishda rasmiylashtiriladi, Qarz oluvchi, Birgalikda qarz oluvchi va Bank tomonidan imzolanadi.

16.7 Mazkur Shartnomaga kiritilgan barcha o`zgartirishlar va qo`shimchalar uning ajralmas qismi hisoblanadi.

16.8 Mazkur Shartnoma har biri bir xil yuridik kuchga ega bo`lgan, har bir Tomon uchun bittadan 3 nusxada tuzilgan.

17. TOMONLARNING MANZILLARI VA REKVIZITLARI

Bank:

Manzili: _____

Tel.: _____ STIR: _____

Bank kodi: _____

Bank hisobvarag`i: _____

Boshqaruvchi (bosliq): _____

Muhr _____

Birgalikda qarzdor:

Manzili: _____

Telefon: _____

JSHSHIR: _____

Shaxsni tasdiqlovchi hujjat ma]lumotlari:

Imzo: _____

Qarzdor/mijoz:

Manzili: _____

Telefon: _____

JSHSHIR: _____

Pasport seriyasi: № _____

Kim tomonidan va qachon berilgan: _____

viloyat/Shahar, _____ tuman IIB,

_____ yil.

F.I.SH _____

Imzo: _____

Birgalikda qarzdor/mijozlar:

Manzili: _____

Telefon: _____

JSHSHIR: _____

Pasport seriyasi: № _____

Kim tomonidan va qachon berilgan:

_____ viloyat/Shahar, _____ tuman IIB,

_____ yil.

F.I.SH _____

Imzo: _____